

**IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR HAYOTIDAGI O`RNI:
MEDIASAVODXONLIK**

Aminova Gulnoza Xakimovna

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti o`qituvchisi

Matnazarov Umirbek Rahim o`g`li

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mediamadaniyat tushunchasi va uning bugungi kunda tutgan o`rni haqida so`z boradi. Mediamadaniyat XXI asrda ommaviy axborot vositalari ta`siri ostida paydo bo`lgan va shakllangan zamonaviy termin sifatida anglatilib keladi. Bu atama ommaviy axborot vositalari (asosan televideniye, shuningdek, matbuot, radio va filmlar) nafaqat jamoatchilik fikriga, balki did va qadriyatlarga ko`rsatadigan umumiy va intellektual ta`sirni anglatadi. Maqolada mediamadaniyat tushunchasi va uning bugungi kunda tutgan o`rni haqida so`z boradi

Kalit so`zlar: mediamadaniyat, madaniyatshunoslik, sivilizatsiya, ommaviy axborot vositalari, televideniye, matbuot, ommaviy madaniyat, global tarmoq.

**РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ:
МЕДИАГРАМОТНОСТЬ**

Аннотация: В данной статье говорится о понятии медиакультуры и ее месте сегодня. Этот термин относится к общему и интеллектуальному влиянию, которое средства массовой информации (в основном телевидение, но также пресса, радио и кино) оказывают не только на общественное мнение, но также на вкусы и ценности. В статье говорится о понятии медиакультуры и ее месте сегодня.

Ключевые слова: медиакультура, культурология, цивилизация, общественность, СМИ, телевидение, пресса, популярная культура,

THE ROLE OF SOCIAL NETWORKS IN THE LIFE OF YOUTH: MEDIA LITERACY

***Annotation:** This article talks about the concept of media culture and its place today. The term refers to the general and intellectual influence that the media (mainly television, but also the press, radio and cinema) have not only on public opinion, but also on tastes and values. The article talks about the concept of media culture and its place today.*

***Key words:** media culture, cultural studies, civilization, public, media, television, press, popular culture, global network*

KIRISH

Jamiyatning shakllanishi va uning xulq-atvor xususiyatlari axborot sifatiga bog'liq. Ommaviy axborot vositalarining har bir turi tijoratlashtirish darajasi, moliyalashtirish hajmi, resurslari va shunga mos ravishda axborot xabarining sifatiga ega. Taraqqiyotning yangi uslub va shakllari shakllanayotgani, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardagi jadal o'zgarishlar sharoitida ommaviy axborot vositalarining jamiyatga, xususan, yoshlarga ta'sirini har tomonlama tahlil qilish zarurati paydo bo'lmoqda. Sotsiologik nazariyaga ko'ra, ommaviy axborot vositalari quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi: **ma'lumot berish, tarbiyalash, bo'sh vaqtni o'tkazish**. Zamonaviy voqelikda OAV ham reklama yukini ko'taradi. Bozor munosabatlarining shakllanishi, Yevropa integratsiyasi iqtisodiy vaziyatni egallashni talab qiladi. Natijada ixtisoslashtirilgan dasturlar efirga chiqdi va iqtisodiy bloklar paydo bo'ldi. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga bo'lgan e'tibori ortib borayotganini inobatga olgan holda, kunduzgi ta'lim va mehnatni uyg'unlashtirish tendensiyasi, tijorat masalalaridan xabardorlik yosh avlod o'rtasida tadbirkorlik rivojini rag'batlantirmoqda. Barchaga ma'lumki bugungi yoshlarning telefon, kompyuter va televizor oldida o'tkazadigan vaqtlari maktabda yoki boshqa ta'lim muassasalarida o'tkazadigan vaqtlaridan ancha ko'proqni tashkil etadi. Bu ularning ongiga salbiy ta'sir

ko'rsatuvchi turli buzuvchi, ziddiyatli dasturlar, shoular, saytlarni doimiy ko'rishlariga ko'proq imkon beradi, uning nozik ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ular esa bularning turli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'pincha tushunmaydi. Agar e'tiborimizni qaratsak, faqat ko'ngilochar saytlar, turli shoularni tanlaydigan va ko'radigan yoshlar deyarli yurtimizda va dunyoda bo'layotgan ta'limiy-tarbiyaviy, ma'naviy-madaniy teledasturlar, ijtimoiy tarmoqlarni ko'rishdan o'zlarini chetga olishadi. XXI asrda raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi, balki inson ongi va xulq-atvorini boshqaruvchi favqulodda omilga aylangan. Jahonning aksariyat rivojlangan mamlakatlari jamiyat hayotining barcha jabhalariga raqamli axborot kommunikatsiya-texnologiyalarini joriy etish va yaratishga asoslangan yangi taraqqiyot modeliga o'tmoqda. Har qanday davlat rivojining barqarorlik darajasi ilg'or texnologiyalarni yaratish va qo'llash ko'lami bilan o'lchanmoqda. "Raqamli bilim", "raqamli tafakkur" va media madaniyati tamoyillariga asoslangan global axborot jamiyati shakllanmoqda.

Raqamli dunyoning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi jamiyatlarning mustaqil faoliyat olib borish imkoniyatini ham cheklab borishi barobarida insonga, ayniqsa yoshlarga o'ta kuchli ruhiy-g'oyaviy ta'sir o'tkazmoqda. Ya'ni, axborot texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'siri ham kuchayib bormoqda. Jamiyat, borgan sari, raqamli texnologiyalar "iskanjasi"da qolib, ularning yaratuvchilariga, jumladan soxta axborotlarga qaram bo'lib bormoqda. Shu ma'noda media savodxonlik jamiyat farovonligi omili va fuqarolarning har tomonlama rivojlanish instituti sifatida tushuniladi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarning media savodxonligini oshirish masalasiga jiddiy yondashuvni talab etadi.

YuNESKOning qarorlari va tavsiyanomalarida media madaniyatni yuksaltirish, media ta'limining ahamiyati va qo'llab-quvvatlanishi bir necha bor ta'kidlangan (YuNESKO konferensiyalari: Gryunvald, 1982.; Tuluza, 1990.; Parij, 1997.; Vena, 1999.; Sevilya, 2002., Parij, 2007. va boshqalar). 2002 yildagi YUNESKO tavsiyanomalari shuni ko'rsatadiki, "media ta'limi har bir mamlakat fuqarosining so'z erkinligiga bo'lgan asosiy huquqining bir qismidir va axborot

olish demokratiyani qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shadi. Turli mamlakatlarda media ta'limining ëndashuvlari va rivojlanishidagi farqlarni tan olib, uni iloji boricha milliy o'quv dasturi doirasida, shuningdek, insonning butun haëti davomida qo'shimcha, norasmiy ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash doirasida joriy ëtish tavsiya ëtiladi"¹.

Hozirgi zamon ëshlarida Snapchat va Instagram Stories, Tik-Tok ërdamida suhbatlashish, qisqa video lavhalar, fotosuratlar, so'zlar, undovlar, piktogrammalarni bir-biriga yoborish odati kuchayib bormoqda.

Shu jihatdan, media savodxonlikning "YUNESKO tomonidan ilgari surilgan besh tamoyili diqqatga sazovordir:

1-tamoyil. Axborot, kommunikatsiya, kutubxona, media texnologiyalar, internet jamiyat tomonidan tanqidiy foydalanilishi kerak.

2-tamoyil. Har bir fuqaro axborot bilim yaratuvchisidir. Har kim axborot bilimdan foydalanish va o'zini ifodalash huquqiga ëga. Media va axborot savodxonligi erkaklar uchun ham, xotin-qizlar uchun ham inson huquqlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

3-tamoyil. Axborot, bilim va xabarlar har doim ham betaraf, mustaqil ëki xolis bo'lavermaydi. MASning har qanday konseptualizatsiyasi, undan foydalanish va qo'llash ushbu tasdiqning barcha fuqarolar uchun shaffof va tushunarli bo'lishini ta'minlashi kerak.

4-tamoyil. Har bir fuqaro, bunday intilishni namoyish ëtmasa-da, yangi ma'lumotlar, bilim va xabarlarni olish va ularni tushunishni, boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ëga bo'lishni istaydi. Ularning bunday huquqi hech qachon buzilmasligi kerak.

Ushbu tamoyil, shuningdek, deyarli barcha mamlakatlarning qonunchiligida mustahkamlangan.

5-tamoyil. Media va axborot savodxonligini birdaniga o'zlashtirib bo'lmaydi. Bu – doimiy dinamik tajriba va jaraën. U o'z ichiga axborotdan foydalanish, uni yaratish va uzatish, media va texnologik kontent bo'yicha bilim, ko'nikma va

¹ <https://uil.unesco.org/annual-report-2002-unesco-institute-education>
www.tadqiqotlar.uz

qarashlarni qamrab olganda yakunlangan, deb hisoblanishi mumkin”².

Oksford (Buyuk Britaniya) ensiklopediyasida media ta'limiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Media ta'limi (media education) bir vaqtning o'zida media matnlar qanday yaratilishi va tarqatilishi haqidagi bilimlar, ularning mazmunini talqin qilish va baholash uchun analitik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq. Media ta'limi ham, mediani o'rganish (media studies) ham media savodxonligi (media literacy) maqsadlariga erishishga qaratilgan”³.

2017 yilda Berlinda bo'lib o'tgan G20 SAMMITida tadqiqotchilar raqamli savodxonlikning quyidagi tarkibiy qismlarini taklif qildilar⁴:

- 1) axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish qobiliyati);
- 2) kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati);
- 3) kommunikativ savodxonlik, raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati;
- 4) media savodxonlik (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o'rganish imkoniyati);
- 5) texnologiya eki innovatsiyalarga ijobiy munosabat.

Prezident Shavkat Mirziyev ta'kidlanidek, “Raqamli texnologiyalar keng joriy etilgan rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlash Yangi O'zbekistonning ham strategik maqsadlaridan biridir”⁵. Mamlakatimizda raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiy tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi Farmoni bilan mamlakatimizda “Raqamli iqtisodiyat – 2030” strategiyasi qabul qilindi. Unda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va quyidagi qobiliyatlar inobatga olish kabi qator vazifalar belgilangan:

axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish);

² <https://en.unesco.org/sites/default/files/uzbek.pdf> Журналистикада медиа ва ахборот саводхонлиги.

³ https://mediaeducation.ucoz.ru/_id/8/876//Alma_Mater_2.pdf

⁴ Chetty K., Wenwei L., Josie J., Shenglin B. Bridging The Digital Divide: Measuring Digital Literacy, 2017.

⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси . – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2021. – Б. 24.

kompiuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash);

media savodxonligi (axborotni tanqidiy o'rganish);

kommunikativ savodxonlik (aloqa vositalaridan foydalanish);

yangi texnologiyalarga ijobiy munosabatni shakllantirish⁶.

Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatni barpo etishda “axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, axborot resurslaridan samarali foydalanishda aholi, avvalo ešhlarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biriga aylandi”⁷. Shu nuqtai nazardan ham Prezident Shavkat Mirziyev: “Eshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi”⁸, deb alohida ta'kidlab o'tgan. Ya'ni, mediani o'rganish, ešhlarda media savodxonlik qobiliyati va media madaniyatini shakllantirish media ta'limning ustuvor maqsadi etib belgilangan.

Hozirda urf bo'lgan majoziy iboraga ko'ra, “inson o'zining “axborot pillasi”ga o'ralib olishi, o'zini real dunyodan ajratib qo'yishi, illyuzion axborot makonida yashashi mumkin. Media sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilarning tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, ommaviy axborot vositalari tomonidan manipulyatsiya ob'ekti bo'lib ko'proq yoshlar tanlanadi, chunki:

- ular axborotning muhim qismini, to'liq idrok etmaydilar, chunki ular xali uni idrok etishga tayyor emaslar;
- ular xabarlarining ma'nosini yoki bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkinligini qisman tushunadilar;
- ular ommaviy axborot vositalariga nisbatan passiv pozitsiyani egallaydilar, o'zlarini ularning ta'siridan qanday himoya qilishni bilmaydilar va ko'pincha bunday himoya zarurligini tushunmaydilar.

Bugungi kunda axborot xavfsizligi va inson ongini ommaviy axborot vositalari

⁶ Raqamli iqtisodiyot // <https://lex.uz/docs/5030957>

⁷ Федоров И.Б., Коршунов С.В., Советов Я.Б. Перспективы подготовки кадров по направлению «Информационные системы»// Информационно-управляющие системы. – М.: 2004. – С. 38.

⁸ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараккиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 16 б.

tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish davrimizning eng asosiy muammosiga aylandi, va bu hozirda ota-onalar, shifokorlar, psixologlar va o'qituvchilarni tashvishga solmoqda. Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo'li sifatida maktab va ta'lim muassasalarida mediata'lim va mediamadaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirish taklif etilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda jadal rivojlanayotgan mediata'lim bu - pedagogikaning ommaviy axborot qonuniyatlarini o'rganish asosida yoshlarni axborot xurujlaridan o'zini himoya qilish v zamonaviy shakllaribilan tanishtiradigan yo'nalishdir. Mediata'limni o'rganish natijasida inson quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishimukin:

- o'zi bilan qabul qilinuvchi axborot o'rtasida "psixologik masofa" o'rnatish mexanizmlarini yaratish, o'zining ongini manipulyatsiya qilinishidan psixologik himoya qilish, axborotlarni tanqidiy baholash ko'nikmalarini egallash;
- audiovizual idrok etishning ongli tajribasini egallash; idrok etish qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish;
- amaliy darajada noverbal xabarlar tillarini (teletasvirlar tahlili, kino tili, reklama tili va boshqalar) o'zlashtirish, bu esa ularnga axborotlarning mazmuni anglashga va o'zini namoyon etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Chetty K., Wenwei L., Josie J., Shenglin B. Bridging The Digital Divide:
- 2.Measuring Digital Literacy, 2017. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси . – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2021. – Б. 24.
- 3.Рақамли иқтисодиёт // <https://lex.uz/docs/5030957>
4. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 16 б.